

BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING BUXGALTERIYA

HISOBINI TASHKIL ETISH

Qurbanov Xolmurat Kabilovich

O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi magistranti

Maqolada oliy ta'lif muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larning buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan. Bunda davlat, xorijiy va nodavlat oliy ta'lif muassasalarining mulkchilik shakliga ko'ra tarkibi, ularning o'ziga xos bo'lgan farqli jihatlari, ta'lif muassasalaridagi byudjetdan tashqari mablag'larining tarkibiy tuzilishi va buxgalteriya hisobining ob'yeqtari tadqiq qilingan. hozirgi kunda halqaro amaliyotda ommalashib borayotgan "universitet 3.0." va "universitet 4.0." modellari asosida ta'lif, ilm fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot tarmoqlari, jamiyat va raqamlashtirishni uyg'unlashtirish asosida oliy ta'lif muassasalarining strategik taraqqiyotini ishlab chiqish asosida qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalg qilish yo'llari tavsiya etilgan. oliy ta'lif muassasalarining buxgalteriya hisobi axborotidan foydalanuvchilar va byudjetdan tashqari mablag'lari tarkibiy tuzilishi bayon qilingan. Shuning bilan birga ilmiy maqolada oliy ta'lif muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larning buxgalteriya hisobini tashkil qilishni takomillashtirish yuzasidan tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lif tizimi tranformatsiya jarayonini boshdan kechirib, jahon mehnat bozorida o'ziga xos o'rinni egallab bormoqda. o'tgan davr mobaynida ta'lif xizmatlari bozorida ta'lif oluvchilar va oliygochlari o'rtasida bilim olish ko'nikmalari, kompitensiyalari, ta'lif metodlari, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda yangicha ko'rinishga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayonlar ayniqsa, oliy ta'lif va oliy ta'lifdan keyingi ta'lifda yaqqol namoyon bo'lmoqda. hozirgikunda 200 mlndan ortiq talabalar 36 mingdan ortiq oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olmoqda. bu ko'rsatkich keyingi 10 yillikda osiyo va yevropa davlatlaridagi oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olish istagi borlar hisobidan yana oshishi bashorat qilinmoqda. Jahon ta'lif bozordagi aylanma o'rtacha 100 mlrd.dollarni, bunda oliy ta'lif muassasalarining ulushi 50-70 mlrd.dollarni tashkil etmoqda. Bu o'z navbatida ta'lif oluvchilarning oliy ta'lif muassasalari tanlanishida sifatli ta'lif berilishi, halqaro reyting ko'rsatkichlaridagi egallagan yuqori o'rniga, ta'lif muassasasining imidjiga hamda bitiruvchilarning nufuzli tashkilotlarda ishlashlari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan mamlakat oliy ta'lif muassasalari

faoliyatida ham ushbu ishlarga alohida e'tibor qaratilishi, kelgusida oshishi kutilayotgan ta'lim oluvchilarning jalg qilish yo'llarini topishi, kuchayib borayotgan raqobat kurashida munosib ishtirok etib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashi, ilm-fan, ishlab chiqarish, biznes va jamiyatning muhim bo'g'ini sifatida tadbirkorlik faoliyatlari asosida byudjetdan tashqari mablag'larni jalg qilishi zarur bo'ladi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarining mavjud moddiy-texnik bazasi, ilmiy salohiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim xizmatlarini ko'rsatishlari bilan birga ilmiy tadqiqot natijalari va yaratilgan innovatsiyalarni biznes sub'yeqtlariga amaliyotiga joriy etish orqali qo'shimcha byudjetdan tashqari mablag'larni jalg qilishlari zarur bo'ladi. Shuningdek, halqaro amaliyotda ilg'or oliy ta'lim muassasalarida ommalashib borayotgan "universitet 3.0." va "universitet 4.0." modellari asosida ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot tarmoqlari, jamiyat va raqamlashtirish jarayonlari mustahkam integratsiyani tashkil etgan holda taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqilishi, shu asosida kelgusida ishlab topiladigan moliyaviy mablag'larni oshirish talab etiladi. Bu topilgan mablag'lar hisobidan ta'lim muassasasining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, salohiyatli professor-o'qituvchilar va xorijiy ilg'or mutaxassislarni jalg qilish, bir so'z bilan aytganda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Mazkur ishlarni tizimli amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining mulkiy shakllari, tadbirkorlik faoliyatilari asosida topiladigan byudjetdan tashqari mablag'larning tarkibiy tuzilishini, ularning buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalalarini o'rganish zarurati paydo bo'ladi. Umuman byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, nazoratni tashkil qilish masalalari bo'yicha respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev, M.Ostanaqulov, S.U.Mehmonov, M.X. Saidov kabilar ilmiy tadqiqot olib borishgan. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalalari bo'yicha yo'riqnomalarini tasdiqlangan bo'lib, unda buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy masalalari keltirilgan. m.ostanaqulov tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalari tadqiq qilingan. Iqtisodchi olim S.Mehmonovning ilmiy tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Sh.Ganiyevning ilmiy tadqiqotlarida ta'lim tizimi misolida byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan. Yuqorida ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek, qabul qilingan kodeks, nizom va buyruqlarda asosan byudjet tashkilotlarida byudjetdan



tashqari mablag'lari hisobini tashkil etishning ayrim masalalari yoritilgan. Lekin mazkur tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari topilgan mablag'lari hisobi, tarkibiy jihatlari bo'yicha yetarlicha tadqiqotlarning olib borilmaganligi, mazkur mavzuning tadqiq ob'yekti sifatida o'rganilishiga sabab bo'ldi. davlat oliy ta'lim muassasalarining 10 tasi o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan, 36 tasi moliyaviy mustaqillikka erishgan muassasalari hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyatlarini tadqiq qilinar ekan, eng avvalo, amaldagi xujjatlarga asosan "Oliy ta'lim muassasasi yuridik shaxs sifatida oliy ta'limning o'quv rejali va fan dasturlarini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tuziladigan, o'z ustavi hamda mazkur nizom asosida ish yuritilishi" ta'kidlab o'tilgan. Shundan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi bilan bir qatorda davlat byudjeti mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtirish asosida olib boriladi. Mamlakatimizdagi amaldagi huquqiy-me'oriy xujjatlarga asosan oliy ta'lim muassasalari ta'lim muassasasi sifatida byudjet tashkiloti sifatida qaralib, asosiy maqsadi foyda olishga qaratilmaydi. Lekin shuning bilan bir qatorda o'z faoliyati davomida byudjetdan tashqari mablag'larni mavjud moddiy texnik va ilmiy salohiyatidan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyati bilan ham topishlari mumkin bo'ladi. Bunda oliy ta'lim muassasasining tasdiqlangan ustavi asosida oliy o'quv yurtlari tadbirkorlik va boshqa daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshiradi. oliy ta'lim muassasasi daromad keltiradigan faoliyatlarni amalga oshirish uchun yuqori turuvchi organidan ruxsati asosida turli faoliyatlarni ko'rsatish mumkinligi belgilangan. O'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalari esa ushbu holatda vasiylilik kengashi orqali oliy ta'lim muassasining daromad va xarajatlari parametrlarini tasdiqlash, moliya yili uchun tayyorlangan biznes rejasini ko'rib chiqish, yillik moliyaviy hisobotlarini muhokama qilish va tasdiqlash, moliyaviy faoliyatini bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish kabi ishlari belgilangan. shuning bilan birga ta'limning qo'shimcha xizmatlarini joriy qilish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun mutaxassislarning malakasini oshirish, boshqa pullik xizmatlarni joriy etish kabilar belgilab qo'yilgan. Bunda davlat, moliyaviy mustaqillikka erishgan va o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalari ham litsenziyalanaligan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda tegishli ruxsatnomalar olishi kerak. Ta'lim muassasasi amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda pullik qo'shimcha ta'lim va ta'lim muassasasining ustavida nazarda tutilgan



boshqa xizmatlarni ko'rsatishi, shuningdek ixtiyoriy xayriyalar orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish huquqiga ega bo'lib, jismoniy yoki yuridik shaxslarning, shu jumladan xorijiy fuqarolar va xorijiy yuridik shaxslarning maqsadli badallarini jalb qilish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda davlat, o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan, moliyaviy mustaqillika erishgan oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik asosida qo'shimcha daromadlarni topishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin ushbu byudjetdan tashqari daromadlarning asosiy qismi to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun tushgan tushumlar ekanligini ko'rishmumkin. lekin halqaro amaliyatda "universitet 3.0. va "universitet 4.0." modellari asosida asosiy tushumlar tadbirkorlik faoliyatining turli yo'nalishlaridan, innovatsiyalar, biznes sub'yektlariga intelektual ishlanmalarning joriy etilishi, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida ta'lim muassasasi o'rnini mustahkam bo'lishi, nou xaularning tijoratlashishi bilan alohida o'rinni tutadi.

ADABIYOTLAR RO"YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni, Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr', O'rq-637-son, <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'lif vazirining "Oliy ta'lif to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 22 fevralda 1222-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan), Toshkent sh., 2003 yil 9 yanvar', 9-son
3. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining 105-sonli buyrug'i, 2010 yil 17 dekabr'
4. Ekonomika visshego obrazovaniya: tendensii razvitiya vmire i rossii. analiticheskiy doklad-daydjest. nauchno-issledovatel'skiy institut razvitiya obrazovaniya rossiyskogo ekonomiceskogo universiteta imeni g.v. plexanova. <https://www.rea.ru.org.managements>.